



O'ZBEK YOG'OCH O'YMAKORLIGI SAN'ATI: TARIXIY ILDIZLARI, ESTETIK AHAMIYATI VA IJTIMOIY FUNKSIYALARI

Ilaxunova Gulchehra G'ulomjon qizi,

Guliston davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Kayumov Erkin Kazakbayevich,

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

e-mail: kayumoverkin@gmail.com

Annotatsiya: maqolada O'zbekiston xalq amaliy san'atining muhim turlaridan biri bo'lgan yog'och o'ymakorligi san'atining tarixiy ildizlari, mintaqaviy maktablari, badiiy xususiyatlari, funksional ahamiyati va zamонавиј тараqqiyot yo'nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, bu san'at turining estetik, tarbiyaviy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy funksiyalari tizimlashtirilib, uni saqlash va rivojlantirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot, ta'limi hamda xalqaro targ'ibot ehtiyojlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: yog'och o'ymakorligi, xalq amaliy san'ati, estetik tarbiya, milliy meros, o'zbek san'ati, naqsh, hunarmandchilik, mintaqaviy maktablar, ustoz-shogird an'anasi, dizayn.

O'zbekiston xalq amaliy san'atining qadimiy va boy turlaridan biri bo'lgan yog'och o'ymakorligi san'ati insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida shakllana boshlagan. Insoniyatning dastlabki faoliyati mehnat qurollari va uy-ro'zg'or buyumlariga bo'lgan ehtiyoj asosida rivojlangan bo'lib, bu jarayonda turli materiallarni, jumladan, tosh, suyak, keyinchalik esa yog'ochni ishlov berish san'ati vujudga kelgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Surxon vohasidagi Yumaloq tepe hududidan topilgan yog'och o'ymakorligiga oid artefaktlar mazkur san'at turi miloddan avvalgi I ming yilliklarda ham mavjud bo'lganini isbotlaydi. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, So'x va boshqa qadimiy hududlarda VI-VII asrlarga tegishli



namunalar aniqlangan. Bu san'at taraqqiyoti ayniqsa me'moriy obidalar – masjid, maqbara, madrasa, hujra va hovlilarning ustun, eshik va ravoqlarida mujassam bo'lgan.

Xiva yog'och o'ymakorlik maktabi bu san'atning yirik o'choqlaridan biri bo'lib, nafislik va naqshlarning betakrorligi bilan ajralib turadi. Mazkur maktab vakillaridan biri bo'lgan Ota Polvon (1867 y.t.) o'z ijodida o'tmish ustalari an'analarini davom ettirib, ko'plab tarixiy binolarning eshik, ustun va darvozalarini bezagan.

Yog'och o'ymakorligi san'atining asosiy funksiyalarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

Estetik-bezaklik vazifasi – naqsh va kompozitsiyalar orqali muhitni go'zallashtirish, kishining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish;

Madaniy-ma'naviy merosni saqlash – san'at orqali tarixiy qadriyatlarni asrab-avaylash va avlodlarga yetkazish;

Estetik tarbiya – yosh avlodda go'zallikni anglatuvchi didni shakllantirish, milliy san'atga hurmat tuyg'usini tarbiyalash;

Iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat – san'at buyumlarini tayyorlab, realizatsiya qilish orqali ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yish.

Shunday qilib, yog'och o'ymakorligi san'ati – bu nafaqat estetik go'zallik, balki xalqimizning tarixiy xotirasi, ma'naviy olami va moddiy madaniyatini o'zida mujassam etgan betakror boylikdir. Global madaniyatlar kesishgan bugungi davrda bu san'at turini saqlab qolish, rivojlantirish va xalqaro miqyosda targ'ib qilish muhim vazifa sifatida dolzarbdir.

Bugungi kunda yog'och o'ymakorligi san'ati O'zbekistonning milliy brendlardidan biri sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda. Ustachilik an'analarini nafaqat madaniy merosni saqlash vositasi, balki zamonaviy dizayn va interyer san'atida ham keng qo'llanmoqda. Turli mehmonxonalar, milliy restoranlar, majlislar zali, muzeylar va xususiy uylarning ichki bezaklarida o'ymakorlik namunalariga keng o'rin berilmoqda. Bu holat xalq amaliy san'ati va dizaynning integratsiyasiga olib kelmoqda. Yog'och o'ymakorligi san'atining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati ham beqiyosdir. O'zbekistonning ko'plab hunar maktablarida, kollej va institatlarda bu soha bo'yicha maxsus kurslar yo'lga qo'yilgan. O'quvchilarga nafaqat amaliy



ko‘nikmalar, balki san’at tarixiga oid bilimlar, naqshlar tahlili, kompozitsion g‘oya va estetik mezonlar ham o‘rgatilmoqda. Ustoz-shogird an’anasi asosida rivojlanayotgan bu tizimda har bir usta o‘z mahoratini shogirdlariga yetkazish orqali an’anani davom ettirmoqda.

Milliy hunarmandchilikni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari, yarmarkalar, ko‘rgazmalar va xalqaro festivallar orqali yog‘och o‘ymakorligi san’ati keng targ‘ib qilinmoqda. Xususan, “Hunarmand” uyushmasi, Ipak va zargarlik xalqaro festivallari, Turkiy dunyo hunarmandlari forumlari kabi platformalar ustalarning ijodini xalqaro maydonga olib chiqishda muhim vosita bo‘lmoqda.

Yog‘och o‘ymakorligi san’ati o‘zbek milliy madaniyatining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u o‘zining betakror estetik qiyofasi, semantik chuqurligi va tarbiyaviy qudrati bilan ajralib turadi. Bu san’at turi nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki zamonaviy jamiyatning madaniy rivojlanishida, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida ham muhim rol o‘ynamoqda. Yog‘och o‘ymakorligining ilmiy asosda o‘rganilishi, uning ijtimoiy va pedagogik salohiyatini ochib berish, yosh avlod ongida milliy g‘urur, estetik did va tarixiy xotirani shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, bu san’at turini xalqaro miqyosda targ‘ib etish, milliy brendga aylantirish, turizm va madaniy diplomatiya sohalariga integratsiya qilish istiqbollari ham kengdir. Shunday ekan, yog‘och o‘ymakorligi san’ati faqat o‘tmish yodgorligi emas, balki bugunning ham, keljakning ham estetik, madaniy va iqtisodiy ehtiyojlariga mos keluvchi, jahon miqyosida tan olinayotgan milliy san’at turidir.

Yog‘och o‘ymakorligi san’ati O‘zbekiston xalq amaliy san’atining yuksak badiiy va ma’naviy qadriyatlarini o‘zida jamlagan noyob merosdir. Uning tarixiy ildizlari chuqur bo‘lib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, aksincha, zamonaviy dizayn, interyer bezagi va milliy brendlashtrish jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Mintaqaviy o‘ymakorlik maktablarining o‘ziga xos uslublari, naqsh turlari va texnikasi o‘zbek san’atining boyligi hamda xilma-xilligini ko‘rsatib beradi.

Yog‘och o‘ymakorligi san’atining estetik, tarbiyaviy, madaniy-ma’naviy va iqtisodiy funksiyalarini chuqur o‘rganish, uni yosh avlodga yetkazish va ilmiy asosda rivojlantirish, milliy identitetni mustahkamlash, xalqaro hamkorlik doirasida targ‘ib



etish – zamonaviy ilm-fan, madaniyat va ta'lim sohasining ustuvor vazifalaridandir. Ushbu san'at turining har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi nafaqat milliy merosni asrash, balki madaniy barqarorlik va innovatsion rivojlanish omili sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- R.Hasanov. Maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. T.: Fan. 2004 y.
- Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Interpretation of the Problem of Educational use of Aesthetic Views of Eastern Thinkers in Pedagogical Research." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3.1 (2024): 9-9.
- Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Sharq mutafakkirlarining estetik qarashlaridan pedagogik tadqiqotlarda tarbiyaviy foydalanish muammosining talqini". Favqulodda: Ta'limgagi kashfiyotlar va umrbod ta'lim jurnali (EJEDL) 3.1 (2024): 9-9.
- Жумабоев, Наби. "THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4.2 (2024).
- Kazakbayevich K. E., Baxromjon o'g'li AB FARG 'ONA VODIYSI KULOLCHILIGI AN'ANALARI //YANGILIK TADQIQOTLARNING NAZARIYASI VA ANALITIK ASPEKTLARI. – 2025. – V. 3. – № 35. – B. 94-101.
- Boxodirovna, K. D. (2025). KOMPOZITSIYANING O'ZIGA XOS QONUNIYATLARI VA ULARNING AHAMIYATI. MASTERS, 3(2), 137-141.
- Xoljigitovich, M. I. (2025). INTERYERDA KOSHINLI BEZAK TURLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. MASTERS, 3(3), 41-46.